WORLD SCIENCE PUBLISHING
LONDON LTD
LONDON
London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

XX ASR BIRINCHI YARMI FORS NASRIDA TARIXIY ROMAN JANRINING SHAKLLANISHI

Abdullayeva Zilola Ziyodullo qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Eronshunoslik va Afg‘onshunoslik oliy maktabi 2-kurs magistranti
zilolasena@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada fors nasrida tarixiy roman janrining shakllanish jarayoni XIX asrning ikkinchi yarmidan 1941-yilgacha bo‘lgan davr misolida tadqiq etiladi. Janrning mumtoz adabiyot, xalq qissalari va Qojorlar davri tarixnavisligidagi ildizlari, ma’rifatparvarlik nasri hamda Yevropa adabiyoti, ayniqsa, A.Dyuma romanlari tarjimalarining roli ko‘rsatiladi. Tarixiy-adabiy va qiyosiy-tipologik metodlar asosida, G.Lukach, M.M.Baxtin va B.Anderson qarashlariga tayanib, ilk fors tarixiy romani Yevropa namunalaridan farqli o‘laroq shoh va milliy qahramonlar markazda turgan tarixiy-sarguzasht roman sifatida shakllangani hamda Rizoshoh davrida milliy o‘zlikni shakllantirish vositasiga aylangani asoslanadi. Janrning keyingi davrlarda tarixiy-biografik va tarixiy-falsafiy shakllar sari rivojlanish yo‘nalishi ham belgilab beriladi.

Kalit so‘zlar: fors adabiyoti, tarixiy roman, janr shakllanishi, tarixiy-sarguzasht roman, Qojorlar davri, tarjima, Rizoshoh davri, milliy o‘zlik.

АННОТАЦИЯ

В статье исследуется процесс формирования жанра исторического романа в персидской прозе на материале периода со второй половины XIX века до 1941 года. Показаны истоки жанра в классической литературе, народных повестях и историографии каджарского периода, а также роль просветительской прозы и переводов европейской литературы, прежде всего романов А.Дюма. На основе историко-литературного и сравнительно-типологического методов, с опорой на взгляды Г.Лукача, М.М.Бахтина и Б.Андерсона, обосновывается, что ранний персидский исторический роман, в отличие от европейских образцов, сложился как историко-приключенческий роман с шахом и национальными героями в центре, а в эпоху Реза-шаха стал средством формирования национальной идентичности. Намечено также направление дальнейшего развития жанра к историко-биографическим и историко-философским формам.

Ключевые слова: персидская литература, исторический роман, формирование жанра, историко-приключенческий роман, каджарский период, перевод, эпоха Реза-шаха, национальная идентичность.

ABSTRACT

The article examines the formation of the historical novel in Persian prose from the second half of the nineteenth century to 1941. It traces the genre’s roots in classical literature, popular romances and Qajar historiography, and the role of enlightenment prose and translations of European fiction, above all the novels of A.Dumas. Using historical-literary and comparative-typological methods and drawing on the views of G.Lukács, M.M.Bakhtin and B.Anderson, the article argues that, unlike its European models, the early Persian historical novel developed as a historical-adventure novel centred on kings and national heroes and became a means of shaping national identity under Reza Shah. The subsequent evolution of the genre towards historical-biographical and historical-philosophical forms is also outlined.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

Keywords: Persian literature, historical novel, genre formation, historical adventure novel, Qajar period, translation, Reza Shah period, national identity.

KIRISH.

Tarixiy roman jahon adabiyotida nisbatan yosh, biroq eng serqirra janrlardan biri hisoblanadi. Yevropa adabiyotida u XIX asr boshida, aniqrog‘i, Valter Skottning “Ueverli” (1814) romani bilan mustaqil janr sifatida qaror topdi. Venger faylasufi va adabiyotshunosi G.Lukach tarixiy romanning tabiatini maxsus tadqiq etib, uning mohiyatini buyuk tarixiy voqealarni qayta hikoya qilishda emas, balki shu voqealarda ishtirok etgan odamlar siymosini badiiy jonlantirishda, ya’ni muayyan davrning ijtimoiy ziddiyatlari oddiy insonlar taqdirida qanday aks etishini ko‘rsatishda deb biladi[1]. M.M.Baxtin esa romanda makon va zamonning badiiy birligini ifodalovchi “xronotop” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, tarixiy asarlarni tahlil qilishning muhim nazariy vositasini yaratdi[2]. Tarixni shaxs taqdiri orqali ko‘rsatish va makon-zamon birligining badiiy talqini fors tarixiy romanini o‘rganishda ham asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotshunoslikda tasvir obyekti va tarixiy materialga munosabatiga ko‘ra tarixiy romanning bir necha turi farqlanadi: hujjatli-tarixiy roman (yozuvchi arxiv hujjatlari va manbalarga qat’iy tayanadi), tarixiy-biografik roman (markazda muayyan tarixiy shaxsning hayot yo‘li turadi), tarixiy-sarguzasht roman (tarixiy fon sarguzasht syujet uchun asos vazifasini bajaradi) va tarixiy-falsafiy roman (tarix orqali inson va jamiyat taqdiri haqidagi umumbashariy savollar ko‘tariladi). Amalda bu turlar ko‘pincha aralash holda uchraydi, biroq har bir asarda ulardan biri yetakchilik qiladi. Ushbu tasnif fors tarixiy romanining rivojlanish bosqichlarini belgilashda ham qulay mezon bo‘lib xizmat qiladi. Fors adabiyotida tarixiy roman Yevropaga qaraganda ancha kech – XX asr boshlarida shakllandi. Buning sababi Eron nasrining o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li bilan bog‘liq: ko‘p asrlar davomida fors badiiy tafakkurining asosiy ifoda shakli she’riyat bo‘lib keldi, nasr esa asosan tarixnavislik, axloqiy-ta’limiy asarlar va xalq qissalari doirasida rivojlandi.

Zamonaviy fors nasrining, jumladan, tarixiy romanning kelib chiqishi Eron adabiyotshunosligida Yahyo Oriyanpurning “Sabodan Nimogacha” (از صبا تا نیما)[3] va Hasan Mirobidiniyning “Eron hikoyanavisligining yuz yili” (صد سال داستاننویسی ایران)[4] asarlarida atroflicha yoritilgan. G‘arb eronshunosligida H.Kamshodning zamonaviy fors nasriga bag‘ishlangan monografiyasi[5] va “Encyclopaedia Iranica”ning badiiy nasrga oid maqolalari[6] bu boradagi asosiy manbalar hisoblanadi. Fransuz eronshunosi K.Balay zamonaviy fors romanining genezisini tarjima adabiyoti va

---

[1] Lukács G. The Historical Novel / Transl. by H. and S. Mitchell. – London: Merlin Press, 1962. – P. 42.

[2] Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе. Очерки по исторической поэтике // Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – С. 234–235.

[3] تهران: شرکت سهامی کتابهای جیبی، ۱۳۵۰ .سال ادب فارسی. ج. ۱ آرینپور، یحیی. از صبا تا نیما: تاریخ ۱۵۰

[4] تهران: نشر چشمه، ۱۳۷۷ .میرعابدینی، حسن. صد سال داستاننویسی ایران. ج. ۱

[5] Kamshad H. Modern Persian Prose Literature. – Cambridge: Cambridge University Press, 1966.

[6] Yavari H. Fiction ii(b). The Novel // Encyclopaedia Iranica. – New York, 1999. – Vol. IX, Fasc. 6. – P. 580–592. – URL: https://www.iranicaonline.org/articles/fiction-iib-the-novel

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

ma’rifatparvarlik nasri bilan bog‘liq holda tadqiq etgan[7], K.Talattof esa XX asr fors adabiyoti taraqqiyotini davr mafkuraviy oqimlari, xususan, Rizoshoh davridagi eroniy millatchilik bilan bog‘lab talqin qiladi. O‘zbek sharqshunosligida bu masala S.R.Sotiboldiyevaning doktorlik dissertatsiyasida janr evolyutsiyasi nuqtai nazaridan tizimli tahlil qilingan[8]. Biroq mavjud tadqiqotlarda fors tarixiy romanining Yevropa namunalaridan tipologik farqi va uning milliy o‘zlikni shakllantirishdagi vazifasi zamonaviy roman nazariyasi asosida maxsus tahlil qilinmagan. Mazkur maqola ana shu bo‘shliqni qisman to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotda tarixiy-adabiy (janr taraqqiyotini ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq holda davrlashtirish), qiyosiy-tipologik (fors va Yevropa tarixiy romanlarining qahramon tanlovi va syujet tuzilishini qiyoslash) hamda madaniy-tarixiy metodlardan foydalanildi. Nazariy asos sifatida G.Lukachning tarixiy roman nazariyasi, M.M.Baxtinning xronotop konsepsiyasi va B.Andersonning “tasavvurdagi hamjamiyatlar” nazariyasi olindi.

Fors adabiyotida tarixiy roman o‘z-o‘zidan, bo‘sh zaminda paydo bo‘lgani yo‘q. Uning ildizlarini, eng avvalo, mumtoz adabiyotning tarixiy mavzudagi asarlaridan izlash lozim. Firdavsiyning “Shohnoma” (شاهنامه) eposida Eronning afsonaviy va tarixiy o‘tmishi yaxlit badiiy manzara sifatida gavdalantirilgan, Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” (خسرو و شیرین) va “Haft paykar” (هفت پیکر) dostonlarida esa Sosoniy hukmdorlar – Xusrav Parviz va Bahrom Go‘r siymolari badiiy talqin etilgan. Nasrda Abulfazl Bayhaqiyning “Tarixi Bayhaqiy” (تاریخ بیهقی) asari alohida o‘rin tutadi: unda tarixiy voqealar jonli sahnalar, suhbatlar va tarixiy shaxslarning ruhiy holati orqali hikoya qilinadi. “Samaki ayyor” (سمک عیار), Abu Tohir Tarsusiyning “Dorobnoma”si (دارابنامه) va XIX asrda Qojorlar saroyida yaratilgan “Amir Arslon” (امیرارسلان) kabi xalq qissalari esa sarguzashtga boy syujet, tugun va yechim asosida hikoya qilish tajribasini shakllantirgan. Ilk tarixiy romanlarning ko‘pchiligida ana shu qissachilik an’anasining izlari yaqqol seziladi: sarguzashtlarning ketma-ket tizilishi, qahramonning mardligi va olijanobligini ulug‘lash, pand-nasihat ohangi shular jumlasidandir.

Mumtoz meros bilan bog‘liq yana bir muhim yodgorlik – o‘rta forscha (pahlaviy tilida) yozilgan “Ardasher Popakon ishlari kitobi” (کارنامهٔ اردشیر بابکان). Asarning bosh qahramoni Sosoniylar sulolasining asoschisi, real tarixiy shaxs Ardasher I bo‘lib, syujeti uning hokimiyatga kelishi bilan bog‘liq voqealarga asoslanadi. Rus eronshunosi O.M.Chunakova bu yodgorlikni nashrga tayyorlar ekan, nemis olimi A.Gutshmid fikriga tayanib, uni aynan qahramoni tarixiy shaxs bo‘lgani uchun “tarixiy roman” deb ataydi[9]. Tarixiy romanning shakllanishida Qojorlar davri tarixnavisligining ham o‘rni bor. XIX asrda yaratilgan Lisonulmulk Sipehrning “Nosix ut-tavorix” (ناسخالتواریخ) kabi ko‘p jildli tarixiy asarlar saroy doiralarida va savodxon qatlam orasida keng o‘qilgan. Ularda tarixiy voqealar ko‘pincha rivoyatlar, mo‘jizaviy hikoyalar va badiiy bezaklar bilan aralash holda bayon etilgan bo‘lib, tarix va adabiyot o‘rtasidagi chegara hali aniq ajratilmagan edi. Ilk tarixiy romanlar mualliflarining ko‘pchiligi kasbiy yozuvchi emas, balki tarixga qiziquvchi ziyolilar, amaldorlar yoki muallimlar bo‘lgani ham bejiz emas. Zamonaviy fors nasrining shakllanishi XIX asrning ikkinchi yarmidagi ma’rifatparvarlik harakati bilan

[7] Balaÿ Ch. La genèse du roman persan moderne. – Téhéran: Institut français de recherche en Iran, 1998.

[8] Сотиболдиева С.Р. Замонавий форс романчилиги (жанр эволюцияси ва бадиий маҳорат): филол. фан. доктори (DSc) дисс. – Тошкент: ТДШИ, 2018.

[9] Книга деяний Арташира сына Папака / Транслитерация, пер. со среднеперс., предисл., коммент. и прилож. О.М. Чунаковой. – М.: Наука, 1987.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

chambarchas bog‘liq. Yangi turdagi badiiy nasrning ilk namunalari sifatida odatda Mirzo Fathali Oxundzodaning “Aldangan yulduzlar” qissasi (ozarbayjoncha asl nomi: Aldanmış kəvakib, 1857; forscha tarjimasi: 1874 ,ستارگان فریبخورده), Abdurrahim Tolibovning “Ahmad kitobi” (کتاب احمد) va “Ezgulik qiluvchilar yo‘llari” (مسالکالمحسنین), Zaynulobiddin Marog‘aiyning “Ibrohimbek sayohatnomasi” (سیاحتنامهٔ ابراهیمبیگ) asarlari tilga olinadi. Tolibov va Marog‘aiy asarlarida badiiy maqsaddan ko‘ra ma’rifiy va ijtimoiy-tanqidiy maqsad ustun turadi. “Ibrohimbek sayohatnomasi”da chet elda ulg‘aygan eronlik yigitning o‘z vataniga qilgan safari davomida ko‘rgan adolatsizlik, qoloqlik va poraxo‘rlik manzaralari tasvirlanadi; asar Mashrutiyat harakati g‘oyalarining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Aynan shu asarlar an’anaviy qissa shaklidan yangi nasriy hikoyaga o‘tish yo‘lini ochib berdi. Bu jarayonda tarjima adabiyoti hal qiluvchi rol o‘ynadi. 1851-yilda Tehronda ochilgan Dorilfunun – Eronning birinchi dunyoviy oliy o‘quv yurti va Nosiriddinshoh davrida tashkil etilgan tarjima idorasi atrofida shakllangan tarjimonlar muhiti tufayli Yevropa adabiyotining ko‘plab namunalari forschaga o‘girildi. Ayniqsa, Aleksandr Dyumaning “Uch mushketyor” (سه تفنگدار) va “Graf Monte-Kristo” (کنت مونت کریستو) romanlari Muhammad Tohir Mirzo tarjimasida katta shuhrat qozondi. Jeyms Morierning “Isfahonlik Hoji Boboning sarguzashtlari” (The Adventures of Hajji Baba of Ispahan, 1824) asari esa Mirzo Habib Isfahoniy tarjimasida 1905 (سرگذشت حاجیبابای اصفهانی)-yilda Kalkuttada nashr etilib, o‘zining jonli, kinoyali tili bilan fors nasri uslubining yangilanishiga turtki berdi[10]. Ya.Oriyanpur tarixiy romanning paydo bo‘lishini ham bevosita Dorilfunun faoliyati va adabiyotning yevropalashuvi bilan bog‘laydi[11]. XX asr boshidagi Mashrutiyat inqilobi (1905–1911) Eron ijtimoiy-madaniy hayotida tub burilish yasadi. Inqilob yillarida matbuot keskin ko‘paydi, gazeta va jurnallar sahifalarida yangi turdagi nasr namunalari paydo bo‘ldi. Aliakbar Dehxudoning “Sur-i Isrofil” (صور اسرافیل) gazetasida bosilgan “Charand-parand” (چرند و پرند) felyetonlari xalq so‘zlashuv tiliga yaqin, jonli nasriy uslubning shakllanishiga katta hissa qo‘shdi. 1921-yilda Muhammad Ali Jamolzodaning Berlinda nashr etilgan “Bor ekan, yo‘q ekan” (یکی بود یکی نبود) to‘plami esa zamonaviy fors hikoyasining boshlanishi sifatida e’tirof etildi. Tarixiy roman ham aynan shu yangilanish muhitida – ma’rifatparvarlik nasri, matbuot va tarjima adabiyoti tutashgan nuqtada dunyoga keldi.

Janr XX asr boshlarida ilk tajribalar davrini boshdan kechirdi. H.Mirobidiniy fors tarixiy romaniga asos solish yo‘lidagi urinishlarni Mirzo Og‘oxon Kermoniy (1853/54–1896) nomi bilan bog‘laydi: manbalarda uning Mazdak, Moniy, Nodirshoh va Sulton Husayn haqida asarlar yozgani qayd etilsa-da, ular bizgacha yetib kelmagan[12]. Nashr etilgan ilk tarixiy roman sifatida esa Muhammad Boqir Mirzo Xusraviyning “Shams va Tug‘ro” (شمس و طغرا) asari e’tirof etiladi. Asar voqealari mo‘g‘ullar hukmronligi davriga, xususan, Sheroz hokimi Abish xotun zamoniga oid bo‘lib, unda sevgi va sarguzasht chizig‘i tarixiy fon bilan uyg‘unlashtirilgan. Asarning sanasi manbalarda turlicha ko‘rsatiladi: S.R.Sotiboldiyeva uni 1908-yilga nisbat beradi, “Encyclopaedia Iranica”da esa “Shams va Tug‘ro”, “Venetsiyalik Mari” (ماری ونیزی) va “Tug‘rul va Humoy” (طغرل و همای) kitoblaridan iborat trilogiyaning

[10] Kamshad H. Modern Persian Prose Literature. – Cambridge: Cambridge University Press, 1966.

[11] Сотиболдиева С.Р. Замонавий форс романчилиги (жанр эволюцияси ва бадиий маҳорат): филол. фан. доктори (DSc) дисс. – Тошкент: ТДШИ, 2018. – B. 35.

[12] Сотиболдиева С.Р. Замонавий форс романчилиги (жанр эволюцияси ва бадиий маҳорат): филол. фан. доктори (DSc) дисс. – Тошкент: ТДШИ, 2018. – B. 36.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

uchala qismi 1910-yilda Kermonshohda nashr etilgani qayd etilgan[13]. Bosh qahramon Shams obrazida Dyuma qahramonlari – d'Artanyan va Monte-Kristoga xos jasurlik, jo'mardlik va olijanoblik yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu davrning yana bir muhim asari – Shayx Muso Nasriy Hamadoniyning Ahmoniylar davlati asoschisi Buyuk Kir hayotiga bag'ishlangan "Ishq va saltanat yoki Buyuk Kir fathlari" (عشق و سلطنت یا فتوحات کورش کبیر, 1919) romanidir. Muallif syujet manbai sifatida Gerodot "Tarix"idan, hikoya qilish usuli sifatida esa Dyuma romanlaridan foydalangan. "Encyclopaedia Iranica" muallifi bu davr asarlarida tarixiy ishonarlilikka erishishga qaratilgan sodda urinishlar ko'pincha anaxronizmlar bilan yakunlanib, ularga "primitiv rasmlar jozibasi"ni baxsh etganini qayd etadi. Bizningcha, bu kuzatuv tarixiy haqiqat va badiiy to'qima o'rtasidagi muvozanat muammosi fors romanchiligida janrning ilk qadamlaridanoq mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Shu o'rinda Yevropa va fors tarixiy romanlari o'rtasidagi muhim tipologik farqni ta'kidlash lozim. G.Lukach Skott romanlarining o'ziga xosligini shunda ko'radiki, ularda bosh qahramon, odatda, tarixiy voqealar chetida turgan o'rtamiyona, oddiy shaxs bo'lib, buyuk tarixiy siymolar ikkinchi darajali personaj sifatida namoyon bo'ladi; aynan shu usul tufayli tarix xalq hayoti orqali ko'rsatiladi[14]. Fors tarixiy romanlarining aksariyatida esa, aksincha, markazda shoh, sulola asoschisi, sarkarda yoki muqaddas shaxs turadi. Bu farq, bir tomondan, tarixni shohlar va pahlavonlar tarixi sifatida idrok etuvchi "Shohnoma" an'anasi bilan, ikkinchi tomondan, XX asr boshidagi millatchilik mafkurasining buyuk shaxslarga bo'lgan ehtiyoji bilan izohlanadi. Tarixiy shaxsning roman markaziga qo'yilishi esa tarixiy haqiqat va badiiy to'qima muammosini yanada keskinlashtiradi: taniqli shaxs haqida yozgan muallif manbalardagi ma'lumotlar bilan hisoblashishga majbur bo'ladi, ayni paytda uning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari va so'zlarini badiiy tasavvur asosida qayta yaratadi.

M.M.Baxtinning xronotop nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, ilk fors tarixiy romanlarida tarixiy davr ko'proq sarguzasht syujet o'ynaladigan dekoratsiya vazifasini bajaradi. Baxtin yunon sarguzasht romani misolida tavsiflagan "sarguzasht vaqti"da bo'lgani kabi, bu asarlarda ham qahramon voqealar zanjiri davomida ichki jihatdan o'zgarmaydi, tarixiy jarayon esa uning shaxsiyatiga emas, faqat sarguzashtlar ketma-ketligiga ta'sir qiladi. Lukach Skott romanlarining asosiy yutug'i deb bilgan tarix va shaxs taqdirining ichki bog'liqligi fors romanida ancha keyin – XX asrning ikkinchi yarmida namoyon bo'ladi. Shu jihatlarni hisobga olib, janrning ilk namunalarini tarixiy-sarguzasht roman sifatida tavsiflash o'rinli.

Janr shakllanishining hal qiluvchi bosqichi Rizoshoh Pahlaviy hukmronligi yillariga (1921–1941) to'g'ri keladi. 1921-yilgi davlat to'ntarishidan so'ng hokimiyatni qo'lga olgan va 1925-yilda shoh deb e'lon qilingan Rizoxon siyosatida ikki qarama-qarshi yo'nalish mavjud edi: bir tomondan, ta'lim tizimini dunyoviylashtirish, temir yo'l va sanoat qurilishi, sud tizimini isloh qilishga qaratilgan jadal modernizatsiya, ikkinchi tomondan, qattiq markazlashuv, matbuot ustidan qat'iy nazorat va muxolif fikrni cheklovchi senzura[15]. Davlat mafkurasining tayanchiga aylangan eroniy millatchilik Ahmoniylar va Sosoniylar merosini, Firdavsiy "Shohnoma"sini ulug'lashga yo'naltirilgan edi. 1934-yilda Firdavsiy tavalludining ming yilligi davlat miqyosida nishonlanib, Tusda shoir qabri ustida yangi maqbara barpo

[13] Сотиболдиева С.Р. Кўрсатилган асар.

[14] Lukács G. The Historical Novel / Transl. by H. and S. Mitchell. – London: Merlin Press, 1962. – P. 33–35.

[15] Сотиболдиева С.Р. Замонавий форс романчилиги (жанр эволюцияси ва бадиий маҳорат): филол. фан. доктори (DSc) дисс. – Тошкент: ТДШИ, 2018. – Б. 33.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

etildi, 1935-yildan esa mamlakat xalqaro muomalada rasman “Eron” deb atala boshladi va fors tilini arabcha so‘zlardan tozalash maqsadida Farhangiston (Til akademiyasi) tashkil etildi. Tadqiqotchilar tarixiy romanning aynan shu yillarda fors nasrining yetakchi yo‘nalishiga aylanishini bir qator omillar bilan izohlaydi. Birinchidan, qadimgi Eron shon-shuhratini targ‘ib etishga qaratilgan rasmiy siyosat yozuvchilarni islomgacha bo‘lgan davr mavzulariga undadi. Ikkinchidan, zamonaviy mavzudagi asarlarga nisbatan senzura kuchli bo‘lgan sharoitda uzoq o‘tmish nisbatan xavfsiz mavzu bo‘lib qoldi va yozuvchilar o‘z davri haqidagi fikrlarini ko‘pincha tarixiy libosga o‘rab ifodaladilar. Uchinchidan, Yevropa tarixiy romanlari tarjimalari o‘quvchilar didini shakllantirib, bu turdagi asarlarga barqaror talab yuzaga keltirdi. To‘rtinchidan, “Shohnoma”, “Ardasher Popakon ishlari kitobi” va mumtoz dostonlar yozuvchilarga tayyor syujet va obrazlar tizimini taqdim etdi. Beshinchidan, ilg‘or jamoatchilik fikrida tarixga va voqelikka haqqoniy nuqtai nazardan yondashish ehtiyoji kuchaydi, mumtoz adabiyotdagi romantik-xayoliy tasvir esa endi zamon talablariga javob bermay qoldi.

Tarixiy roman va milliy o‘zlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishda B.Andersonning “tasavvurdagi hamjamiyatlar” konsepsiyasi muhim ahamiyatga ega. Anderson millatni o‘z a’zolari bir-birini shaxsan tanimasa-da, umumiy o‘tmish va umumiy taqdir haqidagi tasavvur asosida birlashgan hamjamiyat sifatida talqin qiladi va bu tasavvurning shakllanishida gazeta va roman alohida rol o‘ynaganini ta’kidlaydi[16]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, XX asr boshidagi fors tarixiy romani aynan shunday vazifani bajargan: u keng o‘quvchilar ommasiga Ahmoniylar, Sosoniylar yoki Safaviylar davri haqida umumiy badiiy tasavvur berib, “biz” va “bizning o‘tmishimiz” tushunchasini shakllantirdi. Demak, fors tarixiy romanining shakllanishini faqat adabiy hodisa sifatida emas, balki milliy o‘zlikni qurish jarayonining ajralmas qismi sifatida ham baholash lozim. Bu davr tarixiy romanlarini mavzu jihatidan shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhni Eronning islomgacha va o‘rta asrlar tarixidagi hukmdorlar, sulolalar va qahramonlarga bag‘ishlangan asarlar tashkil etadi. San’atizoda Kermoniyning Sosoniylar davri voqealari asosidagi “Tuzoq qo‘yuvchilar yoki Mazdak uchun qasoskorlar” (دامگستران یا انتقامخواهان مزدک), Hasanxon Badi’ning Kir haqidagi “Qadimgi doston yoki Kir sarguzashti” (1921 ,داستان باستان یا سرگذشت کورش), Rahimzoda Safaviyning Xusrav Parviz va Yazdigard III davriga oid “Shahrbonu” (شهربانو), Haydar Ali Kamoliyning mo‘g‘ullar istilosi davrini tasvirlagan “Turkon xotun zulmlari” (1928 ,مظالم ترکان خاتون) kabi romanlar shu guruhga mansub. Hasanxon o‘z asariga yozgan so‘zboshida qadimgi davrlarning buyuk shohlari haqida sof forsiy tilda asar yaratish “Eronning buyukligi va qudratini yodga solishi, milliy g‘urur va sha’nimizni ko‘z oldimizda gavdalantirishi”ni ta’kidlaydi[17]. Ikkinchi guruhni islom tarixidagi muqaddas shaxslar hayotiga bag‘ishlangan tarixiy-diniy romanlar tashkil etadi. Bu yo‘nalishning eng yirik namunasi – Zaynulobiddin Rahnamoning uch jildli “Payg‘ambar” (1939–1937 ,پیامبر) romani. Rahnamo payg‘ambar hayotini an’anaviy siyrat kitoblaridan farqli ravishda roman shaklida hikoya qilgan. Bu tajriba fors adabiyotida muqaddas tarixiy shaxsni badiiy obrazga aylantirishning o‘ziga xos namunasi bo‘lib, keyinchalik diniy-tarixiy shaxslar haqidagi romanlarda ham dolzarbligicha qoldi. Tarixiy mavzuga qiziqish faqat roman bilan cheklanib qolmadi. Zamonaviy fors nasrining asoschisi Sodiq Hidoyat ham shu yillarda qadimgi Eron mavzusiga murojaat qilib, “Parvin – Sosonning qizi” (پروین دختر ساسان) va M.Minaviy bilan

[16] Anderson B. Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. – Rev. ed. – London: Verso, 1991. – P. 6, 25.

[17] Сотиболдиева С.Р. Замонавий форс романчилиги (жанр эволюцияси ва бадиий маҳорат): филол. фан. доктори (DSc) дисс. – Тошкент: ТДШИ, 2018. – Б. 38.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

hamkorlikda “Moziyor” (مازیار) dramalarini yaratdi. 1931-yilda Hidoyat, Buzurg Alaviy va Shin Partav arab va mo‘g‘ul bosqinlariga qarshi kurash mavzusidagi hikoyalardan iborat “Aniron” (انیران) to‘plamini nashr ettirdilar; Hidoyatning ushbu to‘plamga kirgan “Mo‘g‘ul soyasi” (سایهٔ مغول) hikoyasi mo‘g‘ullar istilosi davrini tasvirlaydi. Bu faktlar tarixiy mavzu o‘sha davrda nafaqat ommabop yozuvchilar, balki eng iste’dodli adiblar uchun ham milliy o‘zlikni anglash vositasi bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Murtazo Mushfiq Kozimiyning “Qo‘rqinchli Tehron” (1922 ,تهران مخوف) romani bilan ijtimoiy roman yo‘nalishi ham shakllana boshladi va XX asrning 20-yillariga kelib ma’rifatparvarlik yo‘nalishidagi romanchilik o‘rnini tarixiy va ijtimoiy romanlar egalladi.

1941-yilda Rizoshohning taxtdan voz kechishi bilan shakllangan janr yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Senzura vaqtincha yumshab, gazeta va jurnallar soni keskin ko‘paydi, tarixiy romanlar haftalik jurnallarda qismlarga bo‘lib bosiladigan “pavaraqi” (پاورقی) shaklida ommaviy o‘quvchiga yetib bordi. San’atizoda Kermoniyning “Nodir – Dehli fotihi” (نادر فاتح دهلی) kabi ko‘plab romanlar shu davrda dunyo yuzini ko‘rdi. 1960-yillarning oxiriga kelib esa tarixiy voqelikka murojaat qilgan asarlarda tub sifat o‘zgarishi kuzatiladi: Simin Donishvarning “Sovushun” (1969 ,سووشون) va Hushang Gulshiriyning “Shahzoda Ehtijob” (1969 ,شازده احتجاب) asarlari so‘zning tor ma’nosida tarixiy roman bo‘lmasa-da, ularda tarix endi sarguzasht foni emas, balki shaxs ruhiyati va jamiyat taqdirini anglash vositasiga aylandi. Mahmud Davlatobodiyning o‘n jildli “Kalidar” (1984–1978 ,کلیدر) epopeyasida esa tarixiy voqelik xalq hayoti va shaxs taqdiri orqali keng epik ko‘lamda talqin etilib, janr tarixiy-falsafiy shakl sari yuksaldi.

Tarixiy romanning tili va uslubi ham davrlar o‘tishi bilan jiddiy o‘zgardi. M.A.Jamolzoda “Bor ekan, yo‘q ekan” to‘plamiga yozgan so‘zboshisida fors nasrini xalqqa tushunarli, sodda tilda yozish zarurligini asoslab bergan edi. Bu talab asta-sekin tarixiy romanga ham ta’sir ko‘rsatdi: Rizoshoh davri romanlarida mumtoz nasrga xos ko‘tarinki, bezakli uslub va arxaik “sof forsiy” so‘zlar ustun bo‘lsa, 1960-yillardan keyingi asarlarda jonli so‘zlashuv tili, tabiiy dialoglar va personajlarning nutqiy tavsifi muhim o‘rin egalladi. Inqilobdan keyingi davrda esa ichki monolog, ong oqimi, turli hikoyachilar nigohining almashinuvi kabi zamonaviy badiiy vositalar tarixiy romanning ajralmas qismiga aylandi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fors tarixiy romani “Shohnoma” va mumtoz dostonlar, xalq qissalari hamda Qojorlar davri tarixnavisligi zaminida, ma’rifatparvarlik nasri va A.Dyuma romanlari tarjimalari ta’sirida vujudga keldi. Skott namunasidagi Yevropa romanidan farqli o‘laroq, uning markazida oddiy inson emas, shoh yoki milliy qahramon turadi, tarixiy davr esa sarguzasht syujet uchun fon vazifasini bajaradi. Shu bois janrning ilk namunalarini tarixiy-sarguzasht roman sifatida tavsiflash o‘rinli. Rizoshoh davrida (1921–1941) tarixiy roman fors nasrining yetakchi yo‘nalishiga aylanib, milliy o‘zlikni shakllantirish vositasi vazifasini bajardi. 1941-yildan keyin esa janr tarixiy-biografik va tarixiy-falsafiy shakllar sari rivojlandi. Bu bosqichning poetikasi alohida tadqiqot mavzusi bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе. Очерки по исторической поэтике // Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – С. 234–407.
2. Книга деяний Арташира сына Папака / Транслитерация, пер. со среднеперс., предисл., коммент. и прилож. О.М. Чунаковой. – М.: Наука, 1987. – (Памятники письменности Востока).
3. Сотиболдиева С.Р. Замонавий форс романчилиги (жанр эволюцияси ва бадиий маҳорат): филол. фан. доктори (DSc) дисс. – Тошкент: ТДШИ, 2018. – 238 б.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

4. Anderson B. Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. – Rev. ed. – London: Verso, 1991. – 224 p.
5. Balaÿ Ch. La genèse du roman persan moderne. – Téhéran: Institut français de recherche en Iran, 1998.
6. Lukács G. The Historical Novel / Transl. by H. and S. Mitchell. – London: Merlin Press, 1962.
7. Talattof K. The Politics of Writing in Iran: A History of Modern Persian Literature. – Syracuse: Syracuse University Press, 2000.
8. Yavari H. Fiction ii(b). The Novel // Encyclopaedia Iranica. – New York, 1999. – Vol. IX, Fasc. 6. – P. 580–592.
9. آرینپور، یحیی. از صبا تا نیما: تاریخ ۱۵۰ سال ادب فارسی. ۲ ج. تهران: کتابهای جیبی، ۱۳۵۰.
10. میرعابدینی، حسن. صد سال داستاننویسی ایران. ج. ۱. تهران: نشر چشمه، ۱۳۷۷.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.